RAQAMLI TEXNOLOGIYA ORQALI MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING KASB TANLASHGA QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Angren Universiteti kata o’qituvchisi
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna
d.isabekova@auni.uz
ORCID: 0009-0007-6092-2129
Telefon raqami. +99890-336-02-07

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarni kasbga qiziqishlarini oshirishda raqamli texnologiyalar jamiyat va ilm-fan, ta'lim sohasida katta o'rinni egallaydi.Raqamli texnologiyalar tuzilishi, ularga asos soluvchi asosiy prinsiplar, ularning jamiyat va ilm-fan, ta'lim sohasidagi roli va uni maktabgacha ta'limda qo'llash imkoniyatini beradi.*

Аннотация: *В данной статье цифровые технологии занимают большое место в сфере общества, науки и образования, повышая интерес детей к профессии, дают возможность их использования в дошкольном образовании.*

Abstract: *In this article, digital technologies occupy a great place in the field of society, science, and education in increasing children's interest in the profession. gives the opportunity to use in preschool education.*

Kalit so'zlar: *Kasbga yo'naltirish, rivojlantirish, mavzuli rejalashtirish, ma'lumot, qiziqish, interaktiv taqdimot.*

Ключевые слова: *Профориентация, развитие, тематическое планирование, информация, интерес, интерактивная презентация.*

Key words: *Vocational guidance, development, thematic planning, information, interest, interactive presentation.*

Yurtimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun barcha shart–sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikasiya tehnologiyalarni joriy etish, bu O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-4312 da belgilab berildi.

Konsepsiyada maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarida, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligi, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi ta’kidlandi.[1]

Bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib rivojlantirish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kasblar bilan tanishtirib borish bolani o‘z vaqtida mustaqil hayotga jasorat bilan kirishi o‘z kasbiy faoliyat yo‘lini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga bolalarni xar tomonlama intellektual, ma’naviy- axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta’minlaydigan zamonaviy ta’lim dasturlari, ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish maqsadida Vazirlar

[1] O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishkonsepsiyasi. 8 may 2019 yil PQ-4312

Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 487-sonli qarori qabul qilindi[2] hamda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunda har bir bolaning ta’lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi, har bir bolaning iste’dodi nishonlarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit teng bo‘lishi ta’kidlangan. Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonini olib borish, ularni har tomonlama rivojlantirish maqsadida innovatsion axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.[3]

Bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib rivojlantirish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kasblar bilan tanishtirib borish bolani o‘z vaqtida mustaqil hayotga jasorat bilan kirishi o‘z kasbiy faoliyat yo‘lini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi.Ushbu biz tomonimizdan tavsiya qilinadigan maqola katta yosh guruhlarida kasbga yo‘naltirish uchun yaratilgan metod, usul va yondashuvlari, media ilovalardan foydalanish uchun elektron ilovalar; interaktiv taqdimotdir.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun

“Ilk qadam”(takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Davlat o‘quv dasturini mavzuviy rejalashtirish asosida katta yosh guruhlarida kasblar bilan tanishtirish.

Oy	Oy mavzusi	Hafta mavzusi	Kasb turlari
S E N T	O‘zbekiston – mening Vatanim	Mening jonajon O‘zbekistonim	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
		Mening shahrim-mening mahallam	Shahar hokimi Mahalla raisi Obodonlashtirish

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori. 11-iyun 2019 yil 487-son
[3] O'zbekiston Respublikasining ,,Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida’’gi qonuni.16- dekabr 2019-yil, O‘RQ-595-son

A B R			xizmati xodimi
		Men va bizning oilamiz	Mening ota va onam (buvim, bobom) kasbi
		Men va mening do‘stlarim	Men orzu qilgan kasb Mening do‘stim kim bo‘lmoqchi?
O K T A B R	Kuz bo‘yoqlari	Mavsumiy o‘zgarishlar/ Ko‘chmanchi qushlar	Qo‘riqch i Ekolog Zoolog
		Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Agronom Dehqon Bog‘bon Omborchi
		Non rizq-ro‘zimiz	G‘allakor Tegirmonchi Nonvoy
		O‘zbekistonning tabiiy boyliklari	Konchi Geolog Gidrolog
N O Y	Transport, yo‘l harakati qoidalari.	Havo, suv va yer usti transporti	Transport boshqaruvchisi (haydovchi, uchuvchi-pilot, kapitan, mashinist)
		Ehtiyotkor piyoda haftasi	Milliy gvardiya qo‘riqchisi Yo‘l harakati xavfsizligi xodimi

A B R	Hayot xavfsizligi asoslari	Favqulodda yordam xizmatlar	Feldsher O‘t o‘chiruvchi Favqulotda vaziyatlar xizmati xodimi
		Bizning xayrli (ezgu) ishlarimiz	Volonter Tadbikor
D E K A B R	Qish	Qish / Konstitutsiya kun	Yurist(huquqshunos) Deputat
		Sog‘ tanda – sog‘lom aql	Trener Dietolog
		Mavsumiy kiyim va poyabzal	Kiyim dizayneri Tikuvchi
		Yangi yil nima?	Aktyor Vokal qo‘shiqchi (zamonaviy, milliy estrada, maqom)
Y A N V A R	Bolalar bog‘chasi	Qishki ko‘ngilochar o‘yinlar	Figurachi\ Chang‘ichi Xokkeychi
		Vatan himoyachilari kuni	Askar Cheragachi Milliy xavfsizlik xizmati xodimi
		Men va mening tanam	Pediatr Stilist
		Xushmuomalalik alifbosi	O‘qituvchi Tarbiyachi

			Tarjimonchi
F E V R A L	Ajoyib dunyo	Qo‘shni mamlakatlar	Gid (sayrnomachi) Tashqi ishlar vaziri
		Dunyo mamlakatlari	Diplomat Sayohatchi
		O‘zbekistonning buyuk arboblari	Yozuvchi Bastakor
		Kitob tarixi	Muharrir Illyustrator(kitob rassomi)

2.2.1-jadval

Takomillashtirilgan “Ilk qadam’’ davlat o‘quv dasturini bajarish bilan pedagog katta yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun kasblar olami bilan bevosita tanishtirish imkonini qo‘lga kiritadi.

Aprel oyida “Oy mavzusi” “Yer sayyorasi umumiy uyimiz”. “2-Hafta mavzusi” “Yer sayyorasi kuni’’ “Sayyorani asra’’ hafta davomida pedagog tarbiyalanuvchilarga kosmonavt, muhandis-konstruktr, kosmos-biolog, kosmos- shifokor, kosmos-tadqiqotchi kasblarni o‘rgatish bolalarda shu kasb haqidagi ma’lumotlarni yig‘ib qiziqishlari yanada oshadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini shakllantirishda bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib rivojlantirish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kasblar bilan tanishtirib borish bolani o‘z vaqtida mustaqil hayotga jasorat bilan kirishi o‘z kasbiy faoliyat yo‘lini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi.Ushbu biz tomonimizdan tavsiya qilinadigan metodik ko‘rsatma katta yosh guruhlarida kasbga yo‘naltirish uchun yaratilgan

metod, usul va yondashuvlari, media ilovalardan foydalanish uchun elektron ilova; interaktiv taqdimot ilova qilinadi. Aprel oyida “Oy mavzusi” Yer sayyorasi umumiy uyimiz. “2-Hafta mavzusi”, “Yer sayyorasi kuni’’ “Sayyorani asra’’ hafta davomida pedagog tarbiyalanuvchilarga kosmonavt, muhandis-konstruktr, kosmos-biolog, kosmos- shifokor, kosmos-tadqiqotchi kasblarni o‘rgatish bolalarda shu kasb haqidagi ma’lumotlarni yig‘ib qiziqishlari yanada oshiramiz.

1- Slayd “Kasblar olami” loyihasi. 1-rasm



Qiziqarli astronomiya-kosmik kasblar menyuga kiramiz.

2-slayd Menyu ga kirilganidan so‘ng quyidagi bo‘limlar chiqadi.



2-rasm

-Quyosh tizimi

-Kasblar

-Kosmik asboblar

-Raketa uchirish

-Raketani loyihalash

-Kosmonavt ovqati

-Kosmik ob’ektlar

-Vaznsizlik bolajonlar qaysi bo‘limni tanlaymiz.


Tarbiyalanuvchilar javobi:quyosh tizimini

Tarbiyachi: albatta bolajonlar

Menyudan istagan bo‘limni tanlasangiz sizga bo‘lim bo‘yicha ilovalar chiqadi. Tarbiyalanuvchilar javobi:quyosh tizimini

Tarbiyachi: albatta bolajonlar

-Quyosh tizimi bo‘limini tanladingiz.



3-rasm

U bo‘limda quyosh sayyoralari birinma ketin chiqadi tarbiyalanuvchilarga sayyoralar haqida ma’lumot berib chiqamiz. Ko‘rsatib lavha orqali tanishtiramiz.Quyosh tizimining sayyoralarini aytib chiqamiz.


-Kasblar bo‘limida esa kosmonavt, muhandis-konstruktr, kosmos-biolog, kosmos- shifokor, kosmos-tadqiqotchi kasblarni tanishtirishingiz mumkin.



4-rasm

- Kosmik asboblar bo‘limida esa kosmosda kerak bo‘ladiga asbob anjomlarni o‘yin tarzida o‘rgatishingiz mumkin.

-Raketa uchirish bu bo‘limda raketani qismlarini tarbiyalanuvchilar tanlab o‘yin orqali yig‘adilar.



5-rasm

-Raketani loyihalash bu bo‘limda legodan raketani loyihasini yasashadi.

-Kosmonovt ovqati bu bo‘limni tanlagan zahotingiz kosmosda kosmonavtlar yeydigan ichadigan taomlarni o‘yin orqali tanlab o‘ynashingiz mumkin.



2.2.7-rasm

-Kosmik ob'ektlar bu bo'limda metiaritlar va boshqa jismlarni o'rganadilar.

-Vaznsizlik rolikda vaznsizlikni tomosha qilasizlar.

Elektron media kontent tarbiyachilarga faoliya davomida tarbiyalanuvchilarni shu kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda juda katta ro'l o'ynaydi.

Mavzuli rejalashtirishdagi mavzularni pedagog o'tish bilan birga kasbga doir tez aytish va she'r maqollar hikoyalardan ham foydalanish mumkin.

Uslubiy qo'llanmada barcha maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglari faoliyat davomida yoki umumiy guruh mashg'ulotini o'tishda foydalanishlari uchun tavsiya qilinadi.

Bolalarni erta kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi - bolaning kasbiy dunyosiga hissiy munosabatini rivojlantirish, turli faoliyat va kasblarda o'zining kuchli va qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini berishdir. Bunday bilimlarni olgan bola, birinchidan, mehnat mahoratini rivojlantiradi, turli kasb egalari kattalarning mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo'ladi; ikkinchidan, uning dunyoqarashi kengayib bormoqda va nihoyat, bolaning

muayyan kasbga qiziqishi va moyilligi erta namoyon bo'lishiga yordam beradi. Binobarin, bolalarni kasblar bilan tanishtirish vazifasi bolani o'z vaqtida mustaqil hayotga jasorat bilan kirishi va o'z kasbiy faoliyat yo'lini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi, ya'ni biz kasbiy o'zini o'zi belgilash haqida gapiramiz. Bolalar muassasasida bolaning o'zini o'zi belgilashi bevosita amalga oshiriladi, chunki u kasb tanlash va rivojlantirish bilan bog'liq emas, balki bunga tayyorlaydi va olib keladi. Shunday qilib, asosiy maqsad - bolaning o'z kasbiy rivojlanish yo'lini mustaqil ravishda rejalashtirish, tahlil qilish va amalga oshirishga tayyorligini bosqichma-bosqich shakllantirish.[4]

Xulosa qilib aytganda, o‘yin orqali bolalarning turli kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini mustahkamlanadi va chuqurlashadi, mehnatga hurmat hissini tarbiyalanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarni kasbga yo‘naltirishda hozirgi zamon talabi bo‘lgan axborot texnologiyasi kommunikatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kasbga yo‘naltirishda tashkilot tarbiyachi pedagoglari ta’lim-tarbiyaviy faoliyatlari davomida, kasblarga oid, audio, video, DVD disklari, televizor bir so‘z bilan aytganda, multimedia orqali ma’lumotlar berish har bir kasbga tegishli bo‘lgan asbob-anjomlarni multimedia orqali ko‘rsatib tanishtirib borilsa, ularni kasb tanlashga bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortishiga va mustaqil kasb tanlashga yo‘naltirgan bo‘lamiz.Elektron o’yinlardan foydalanish esa zamon talabi.Tarbiyalanuvhilarni ta’lim-tarbiya jarayonida har bir mavzuga mos ravishda kasblar haqida ma’lumotlar va kasb egalarining foydalanadigan xizmat mashinasi asboblari to’g’risida elaktron o’yinda baza shakllantirib jylansa uni kata yoshdagi bolalar qiziqish bilan o’ynaydilar.Biz taklif qilgan kasblar olami loyihasidagi o’yinlar ham kosmonavt kasbiga bo’lgan

[4] https://minikar.ru/uz/dengi/plan-po-proforientacii-dlya-doshkolnikov-iz-opyta-raboty-

ma’lumotlar va bilimlarga ega bo’ladilar.Ta’lim-tarbiya berishda electron manba hozir zamon talabi deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.

2. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi qonun. O’RQ 595-son. 16.12.2019 yil.

3.Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. 802-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori. 20.12.2020 yil

4.O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PQ-4312-son. 08.05.2019 yil

5. “Ilk qadam” takomillashtirilgan davlat o’quv dasturi. 2022-yil

6. Anderson, C., & Thompson, K. (2018). "The impact of digital technologies in early childhood education". Journal of Educational Technology & Society, 21(3), 48-59.

7. Kuchibayev, A., & Shodiev, N. (2020). "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati". Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar, 5(1), 102-115.

8.Djamilova, N., Isabekova, D., & Abduqodirova, O. (2023). DIRECTING PRESCHOOL CHILDREN TO PROFESSION AT THE EARLY AGE. Science and innovation, 2(B9), 500-507.